

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI BOSHLANG’ICH SINF
O’QUVCHILARIDA OBRAZLI TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI**

*Nurullayeva Aziza Ravshan qizi
Osiyo xalqaro universiteti xodimi*

Annotatsiya: Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, zamon bilan hamnafas hozirgi yosh avlod ham shunga monand. Umumta’lim maktabi o’qituvchilarining an’anaviy dars o’tish usullari endi o’z kuchini yo’qotib bormoqda. Yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish uchun ulardek fikrlash zarur. Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarining obrazli tafakkurlarini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning bir qator afzalliliklari yoritilgan

Kalit so’zlar: raqamli texnologiya, kompyuter savodxonligi, didaktika, dars o’tish usullari, AKT vositalari.

KIRISH. Bugungi kunda dunyo miqiyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta’lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o’z ta’sirini ko’rsatayotganligi barchamizga ma’lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasno emas. Pedagoglar o’z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarni qo’lga kiritishga urinmoqdalar.

XXI asrni olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalari asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotgani, jumladan, ta’lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an’anaviy o’qitish usullaridan ko’ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish, ta’lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.¹

Mamlakatning ertangi kuni esa, dunyoqarashi keng maktab bolalari va zamonaviy, salohiyatl o’qituvchi-murabbiylarga ko’p jihatdan bog’liqdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.O’quv-tarbiya ishlari jarayonida o’quvchilarni ijodiy fikrlashga, o’zgaruvchan vaziyatlarga o’rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg’ulotlarda pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari, elektronidarsliklar, versiyalar va multimedialardan foydalana olishi muhimdir. Bu esa o’quvchilarda mutsaqillik, erkin

1. ¹ Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil

fikrlashni tarbiyalash, o‘quv faoliyatini tahlil qilish, itsiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish ularning ichki ehtiyojiga aylantirilishini talab etadi.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o’zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko’nikma va malakalarini shakllantiradi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta’limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko’rsatiladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta’limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko’rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang’ich sinflarda o‘qituvchining mahorati, uni pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta’limning yangi-yangi yo’l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham bo’lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga tayyorlash bugungi ta’limning oldiga qo’yilgan talablardan biridir. Chunki pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o‘quvchilarni bilim, ko’nikma va malakalarini oson va qiziqib o’rganishlari uchun imkoniyat yaratса, ikkinchidan, o‘qituvchining ham professional o’sishiga, ham ma’naviy rivojlanishiga yordam beradi.²

Barkamol avlodni tarbiyalash – “Ta’lim to’g’risidagi” qonunda Respublika ta’lim xodimlari zimmasiga o’ta ma’suliyatlari vazifalar yuklangan. Bu vazifani amalgalash oshirish jarayoni boshlang’ich sinf o‘quvchilarini o‘qishiga yangicha yondashish, o‘qituvchilarni o’z kasbiga va tarbiyalanuvchilarga o’ta ma’suliyatlari munosabatda bo’lishni taqozo etadi.³ Bu dastur yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy, ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to’g’ri yo’l topa olish mahoratiga ega bo’lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o’zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni jamiyat, davlat va oila oldida o’z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g‘oyani ilgari suradi.

2. ² Adizov B.R. Boshlang’ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003-yil

³ Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: O’zbekiston, 2000-yil

ADABIYOTLAR SHARXI. Aytish joizki, jamiyatni axborotlashtirishning asosiy yo‘nalishi boshlang‘ich matabdir. Bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi eng asosiy markazda faoliyat olib boradi. Ta’limda axborotlashtirish muammolarini hal qilish uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ehtiyojlari va imkoniyatlarini shakllantirish zarur. Shu munosabat bilan zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi zamonaviy mikroprotsessor va kompyuterlar asosida amalga oshiriladigan axborotni izlash, to‘plash, saqlash, ishlab chiqarish, qayta ishlash, uzatish va undan foydalanish bo‘yicha maxsus bilim va ko‘nikmalsiz mumkin emas. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar o‘qituvchilarning ta’lim sifatini baholash kompetensiyasining ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalana bilishi kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. U boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) ning o‘ziga xosligi va tabiatini hisobga olgan holda, kasbiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalanish imkonini beruvchi kompetensiyalar majmuasidan iborat va boshlang‘ich ta’limda ham qo’llaniladi. A.M.Karavayeva ta’kidlaganidek, axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning rivojlanishini qo’llab-quvvatlabgina qolmay, balki ularning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini, o‘qishdagi o‘zaro ta’sirini ham oshiradi. Demak, bundan ko‘rinadiki talabalarning, aniqrog‘i bo‘lajak boshlag‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirish omili sifatida u quyidagi muhim afzalliklar bilan tavsiflanadi:

1. O‘quv jarayoni mazmunining usullari, texnologiyalarini takomillashtirish;
2. Har bir o‘quvchiga individual yondashish orqali ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish;
3. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ta’lim jarayonida o‘zaro munosabatlarning yangi shakllarini, shu jumladan, masofaviy ta’limni tashkil etish va takomillashtirish;
4. O‘qituvchi tomonidan ham, ta’lim muassasasi ma’muriyati tomonidan ham o‘quv jarayonini boshqarish vositalarini takomillashtirish;
5. O‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish va faollik darajasini oshirishga ko‘maklashish;
6. O‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini aytib o’tish.
7. O‘quvchilarda mavzuning ko‘z oldida namoyon bo‘lishi uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish.
8. Ilgari o‘rganilgan materialni takrorlash va mustahkamlash imkoniyati;
9. Biznes yoki rolli o‘yin shaklida, shu jumladan, masofaviy formatda turli xil o‘quv vaziyatlarini yaratish;

10. O‘quv ma’lumotlarini izlash va tanlash hamda uni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish;
11. O’quvchilar bilimini qiziqarli o‘yinlar bilan baholash;
12. Virtual laboratoriylar, simulyatorlar va boshqalar orqali turli jarayonlarni modellashtirish imkoniyati; “O‘qituvchi – o‘quvchi”, “o‘qituvchi – o‘quvchining ota-onasi” o‘rtasida o‘z vaqtida doimiy aloqani tashkil etish;
14. Muayyan fan sohasida ham, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham talabalarning ijodiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, takomillashtirish, masalan, mahorat darslarini tomosha qilish orqali sevimli mashg‘ulotlarini shakllantirish;
15. Virtual ko‘rgazmalar, muzeylar va boshqalarga tashrif buyurish orqali o‘quvchilarning estetik madaniyatini oshirish;
16. Turli axborot manbalaridan (elektron kutubxonalar, ilmiy maqolalar, darsliklar va boshqalar) ta’lim maqsadlarida foydalanish imkoniyati.⁴

Xulosa. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion ta’lim sharoiti talablaridan kelib chiqib, ularda axborot kompetentligini rivojlantirishda xorijiy tajribalardan andoza olish va ularni mintaqaga sharoitiga mos ravishda qo‘llash manfaatli bo‘ladi. Jumladan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish madaniyatini kuchaytirish natijasida keljakda ular ta’lim-tarbiya beradigan yosh avlodda ham bu madaniyatning shakllanishiga hissa qo‘sishlariga erishish mumkin.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta’limning mazmunini belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o‘quvchilarning bilimlarni keng egallashi va ma’naviy fazilatlarni o’zlashtirishga yunaltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta’limning natijasi va o’zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob’ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘qish darslari jarayonida erkin va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o‘quvchilar atrof olamdagи, jamiyatdagи qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali lar insoniy fazilatlarni anglash, bilimlarni chuqur o’rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Darslarni samarali va sifatli tashkil etish uchun pedagogning tashkiliy hamda uslubiy jihatdan tayyorgarligi va ta’lim olish jarayonini tashkil etishni ta’minlovchi o‘quv-uslubiy ta’minotni ishlab chiqish talab etiladi. Taminot bazasida o‘quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash imkoniyati bo’lishi muhim

⁴ Azizzox’jaev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama - rejalar). – Toshkent, 2002-yil

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: O'zbekiston, 2000-yil
2. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil
3. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001
4. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'lifni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003-yil
5. Azizzxo'jaev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama - rejalar). – Toshkent, 2002-yil
6. Azizzodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo.- T.: «Moliya», 2002-yil.